

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KAMBAROV ELMUROD AHMADALI O‘G‘LI

**PAXTA SEPARATORINING KONSTRUKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническому наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Kambarov Elmurod Ahmadali o'g'li Paxta separatorining konstruksiyasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash	3
Камбаров Элмурод Ахмадали угли Усовершенствование конструкции и обоснование параметров хлопкового сепаратора	23
Kambarov Elmurod Improvement of the design and justification of the parameters of the cotton separator	43
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	46

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KAMBAROV ELMUROD AHMADALI O'G'LI

**PAXTA SEPARATORINING KONSTRUKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5347 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Obidov Avazbek Azamatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Kozim Komiljonovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Aliyev Botir Tohirjonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "27" sentabr soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 228-76-68, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 6-binosi, 1-qavat, 303-xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (60-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 228-76-68.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» sentabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «5» iyuldagi № 38/3-raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.Mahsudov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

U.J.Yeshbayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasiga bo‘lgan talab yuqori bo‘lganligi uchun uni ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiya vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida 23-24 mln. tonna atrofida paxta tolasi ishlab chiqariladi, lekin uning yillik iste‘moli 23,5-25,0 mln tonnani tashkil etmoqda”¹. Dunyo aholisi sonining intensiv ravishda oshib borayotganligi ham paxta xomashyosiga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Bu borada, jahonda paxta global tovar sifatida e‘tirof etilgan va uni yetishtirish, terish, tashish, g‘aramlash, saqlash va dastlabki ishlov berish texnologik jarayonlarida mahsulot miqdori hamda sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omilni aniqlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali uning tannaxini pasaytish yo‘li bilan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta tarkibidagi tola va chigitga shikast yetkazmagan holda havo quvuridan ajratib olish uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxtani pnevmoquvurlar orqali tashish texnologiyasida – erkin tolalarni quvur orqali tashqariga chiqib ketishini oldini olish va chigit shikastlanishini kamaytirish, energiya resurstejamkor mashina ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, muommolarni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarni ishlab chiqish, barcha texnologik jarayonlar, paxtani ajratish vakuum-klapan valini ishlash samaradorligini va mustahkamligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda paxta xomashyosini ajratib olishda mexnat hamda energiya sarfini kamaytish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish va amalda qo‘llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» ko‘rsatilgan “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 marotabaga oshirish”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60 sonli Farmoni, “Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email secretariat@icac.org. September 1, 2018.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta tozalash korxonalarida paxta tashishda separator ish unumini oshirish, texnologik ko'rsatkichlarini muqobillash, konstruksiyalarini yangilarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish bilan xorijda Dakk Hem, Donald W., Van Doorn, Dan S. Wise, Hans Oetiker, Richard D. Johnson va boshqa olimlar shug'ullanishgan.

Respublikamizda paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi, xususan, paxtani havo yordamida tashishning fundamental-nazariy, amaliy va metodologik asoslarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar B.A.Levkovich, G.I.Miroshnichenko, X.A.Raxmatullin, A.Dzyadzio, P.Baydyuk, R.G.Maxkamov, B.M.Mardonov, A.I.Pirumov, N.Artiqov, X.Axmedxodjayev, N.Kamolov, R.Muradov, S.Qodirxo'jayev, R.Amirov, M.Xojiyev, M.Xasanov, A.Burxanov, O.Sarimsaqov, X.Mamarasulov, O.Eshmuradov, Y.Yangiboyev, Z.Shodiyev, T.O.Shamsutdinov, X.Usmanov, O.Mamatqulov, S.Xusanov, M.Salohiddinova va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Paxtani havo oqimidan ajratish jarayonini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ko'plab izlanishlarga qaramay, bu jarayonning ayrim jihatlari to'liq ochib berilmagan, xususan, paxta separatorida paxtani vakuum-klapanga yo'nalishi, separatorlarda havo bosimining yo'qolishiga sabab bo'ladigan yuqori aerodinamik qarshilik va energiya sarfi sabablari to'liq ochib berilmagan va uni bartaraf etish masalasi o'z yechimini topmagan. Yuqoridagilarga binoan, paxtani havo oqimidan ajratish jarayonini yanada chuqurroq o'rganish, paxta separatorining past aerodinamik qarshilikka ega bo'lgan, mahsulot sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Namangan viloyat hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining BV-Atex-2018-114 raqamli "Tolaning sifatini yaxshilash maqsadida paxta separatori konstruksiyasini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha (2018-2020) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: pnevmotransport tizimidagi separator qurilmasida havo germetikligini ta'minlash va paxtani mayda iflosliklardan tozalash imkonini beruvchi vakuum-klapan konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

paxtani havo oqimidan ajratish va separator konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha avval olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish.

separatsiya jarayonida paxtani mayda iflosliklardan qo'shimcha tozalash imkoniyatlarini o'rganish;

pnevmotransport tizimida sarflanayotgan elektro energiya sarfiga separator qurilmasida sodir bo'ladigan jarayonlarning bog'liqligini o'rganish.

separator qurilmasi uchun yangi vakuum-klapan konstruksiyasini ishlab chiqish va uni paxtaning sifat ko'rsatkichlariga aniqlash;

yangi konstruksiyadagi vakuum-klapanida sodir bo'ladigan jarayonlarni nazariy yo'l bilan o'rganish;

yangi konstruksiyadagi vakuum-klapanini pnevmotransport tizimidagi havo sarfiga ta'sirini o'rganish;

yangi konstruksiyadagi vakuum-klapanini eng maqbul qiymatlarini aniqlash va ishlab chiqarish tizimiga joriy etish.

Tadqiqotning oby'ekti sifatida paxta tozalash korxonalarida paxtani havo quvurlarida tashish jarayonida qo'llaniladigan separator qurilmasi va paxtani tashuvchi havodan ajratish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini paxta separatori konstruksiyasi va texnologik ko'rsatkichlari, paxtani havodan ajratish jarayoni rejimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ish nazariy va amaliy tadqiqotlardan tashkil topgan. Nazariy tadqiqotlar oliy matematika, nazariy va amaliy mexanika, eksperimental tadqiqotlar, matematik statistika, zamonaviy o'lchash asboblardan foydalanib, eksperimentlarni rejalashtirish va optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

separator ishchi kamerasidagi havodan ajragan paxtani ishchi kameradan keyingi texnologik jarayonga chiqarib yuboruvchi qiya burchak ostida joylashgan yangi konveyer lentali vakuum-klapan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

konveyer lentali vakuum-klapanda paxtaning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir qilmagan holda paxta tarkibidagi mayda iflosliklardan tozalovchi to'rli yuza konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

pnevmotransportda paxtani tashish masofasini uzaytirish maqsadida separator ishchi kamerasiga havo kirishini bartaraf etuvchi elastik egiluvchan vakuum-klapan parraklari ishlab chiqilgan;

separator qurilmasining takomillashtirilgan konveyer lentali vakuum-klapan qiyalik burchagi, konveyer lentani aylanishlar soni, konveyer parraklari orasidagi masofa va to'rli sirt bilan ta'sirlashuvi asosida tola va chigit mexanik shikastlanishini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani havo yordamida tashish va uni ajratishda separatorning samaradorligini ta'minlaydigan elastik konveyer lenta va qiya burchak ostidagi to'rli sirt konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

separator ishchi kamerasida paxtani yuqori ish unumida havodan ajratadigan va paxta sifatining saqlanishini ta'minlaydigan ishchi organlari konstruksiyasi, parametrlari va ishlash rejimlari asoslangan;

qiya burchak ostida o'rnatilgan konveyer lentali vakuum-klapanga yig'ishtiriluvchi qanotli parraklar o'rnatish natijasida separator ishchi kamerasiga bo'sh uyachalari orqali havoni sizib kirishi bartaraf etishi aniqlangan;

konveyer lentali vakuum-klapanga parallel burchak ostida paxtani tushish yo'nalishi bo'yicha to'rli sirt joylashtirish orqali mayda iflosliklardan tozalash imkoniga erishilgan, nazariy va amaliy tadqiqotlar yo'li bilan ratsional ishchi parametrlar aniqlangan va yuqori iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy izlanishlar natijalarining mutanosibliigi, tavsiya etilgan ishchi organlari bo'lgan separator vakuum-

klapanining ishlab chiqarish sinovlari va mavjud separator vakuum-klapan ko'rsatkichlari bilan solishtirish natijalari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani havodan ajratish jarayonida separatorning mexanik ta'sirdan himoya qilish orqali paxtaning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlashni ta'minlovchi konstruksiyasi hamda paxtani havodan ajratish jarayonida hosil bo'ladigan tiqilishlar va ularni bartaraf etish usullari ishlab chiqilgani, separator ishchi kamerasidagi paxtani chiqarib yuborish uchun konveyer lentali vakuum-klapan, va unga parallel burchak ostida paxtani tushish yo'nalishi bo'yicha to'rtli sirt joylashtirish orqali separatsiya jarayoni samaradorligini oshirishga erishilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati takomillashtirilgan separator qurilmasini ishlab chiqarish zaruratidan kelib chiqib ishlab chiqilgani, vakuum-klapan bo'sh uyachalari orqali separator ishchi kamerasiga havoni sizib kirishini kamaytirish va paxtani mayda iflosliklardan tozalash imkoniyati yaratilgani, yangi konstruksiyadagi separatorning yuqori iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilish uchun tavsiya etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani havo yordamida tashish jarayonidagi separator qurilmasini vakuum-klapan konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Paxta separatorining ishchi kamerada havo oqimidan ajralayotgan paxta xomashyosini tashqi muhitga vakuum-klapani orqali mayda iflosliklardan tozalagan holda chiqarib yuborish bilan bir qatorda ishchi kameraga havoni sizib kirishini bartaraf etish imkonini beruvchi separator vakuum-klapani konstruksiyasi «O'z paxtasanoat» AJ tasarrufidagi Namangan viloyatining Kosonsoy paxta tozalash AJ da ishlab chiqarishga joriy etilgan («O'z to'qimachilik sanoat» uyushmasining 2024 yil 25 iyuldagi №03/25-1783-son ma'lumotnomasi). Natijada paxtani havodan ajratish jarayonida paxta nuqsonlari va iflosligi 0.3%, yangi separatorni ishlab chiqarishga o'rnatib tajribalar olish natijasida 15-16 % gacha iflosliklardan tozalash samaradorligiga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 6 ta turli ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan 4 ta xalqaro, 2 ta Respublika konferensiyalarida va 1 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruratiga asoslangan, tadqiqotni maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Pnevмотransport tizimi va paxtani havodan ajratib olish jarayonini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar”** deb nomlangan birinchi bobida paxtani dastlabki ishlash jarayonida paxtani havo yordamida tashuvchi qurilmalardan biri, pnevмотransport tizimi va uning asosiy elementi bo'lgan separator qurilmasi hamda vakuum-klapani konstruksiyalari va ularni takomillashtirish bo'yicha avval olib borilgan ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Ilmiy tadqiqotlarda pnevмотransport tizimida paxtani tashish jarayonida havo oqimining paxta xomashyosiga ta'siri, pnevмотransportda havo tezligi va bosimining o'zgarishi, to'rtli yuza bilan sidirgich o'rtasidagi jarayonda tola yo'qolishini o'rganish, havo oqimida tashilayotgan paxtaning shikastlanish darajasi va qurilmaning ish unumdorligi, paxta namligiga bog'liqligini o'rganish, paxta bo'lakchalarini ishchi yuza devori bilan ta'sirlashishi natijasida chigit shikastlanishi, paxtani havo oqimidan inersiya kuchi yordamida ajratib olish jarayonini o'rganish, yangi separatorlarni yaratish va ishchi organlarini takomillashtirish bo'yicha qator masalalar ko'rilgan. Separatorning samarali ishlashiga to'rtli yuza bilan birga uning asosiy elementlaridan biri hisoblangan vakuum-klapan ham ta'sir qiladi. O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari vakuum-klapandagi kamchiliklar to'la bartaraf qilinmaganligini ko'rsatmoqda. Shunga ko'ra, separator va uning asosiy ishchi qismlari, shuningdek uning vakuum-klapan qismini takomillashtirish bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazish kerak.

Dissertatsiyaning **“Yangi seperator qurilmasida harakatlanuvchi paxtani havo oqimidan samarali ajratib olish jarayonining nazariy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobiga ko'ra Paxta oqimining qiya tekislikda qanotli parraklar yordamida ajratib olishni nazariy tadqiqi berilgan (1-rasm).

Paxta tozalash korxonalarida separator ishchi kamerasiga vakuum-klapani orqali havoni sizib kirishini bartaraf etish hamda paxtadagi passiv turdagi mayda iflosliklarni tozalash maqsadida vakuum-klapani qiya burchak ostida konveyer lentaga o'rnatilgan yig'ishtiriluvchi qanotli parraklar joylashgan bo'lib, u paxta oqimiga mos ravishda harakatlanadi va shuning bilan birga to'rtli yuzaga paxtani sidirishi tufayli uni mayda iflosliklardan tozalaydi. Bu qurilma, ishchi kamerada havo oqimidan ajralayotgan paxta xomashyosini tashqi muhitga vakuum-klapani orqali mayda iflosliklardan tozalagan holda chiqarib yuborish bilan bir qatorda ishchi kameraga havoning sizib kirishini butunlay bartaraf etadi.

Faraz qilaylik paxta oqimi gorizont bilan α burchak tashkil etuvchi tekislik ustida 3 ta seksiyada qanotli parraklarning zarba kuchi va tezligi v_c bo'lga havo oqimi ta'sirida harakat etsin. Paxta oqimini bir o'lchovli va statsionar holatda deb qabul qilamiz. Koordinat boshini O nuqtaga o'rnatib, Ox o'qini tekislik bo'ylab yo'naltiramiz. Paxta oqim tezligi, zichligi va bosimlarni har bir seksiyada mos ravishda v_i , ρ_i va p_i ($i = 1,2,3$) bilan belgilaymiz. Faraz qilaylik, tekislikning boshlanish zonasida ta'minlagich orqali vaqt birligida Q_0 miqdordagi xomashyo qanotli parraklar orasidagi seksiyalarga kelib tushsin va uning tezligi qanotli parraklar tezligiga teng bo'lsin. Qanotli parraklar zarbasini nuqtaviy deb qabul qilamiz va oqim harakat tezligi tenglamasida nuqtaviy zarba ta'sirini delta funksiya orqali izohlaymiz.



1-rasm. Qiya tekislikda qanotli parraklar zarbasi ta'sirida paxta oqimining harakatlanish sxemasi

U holda Ox bo'ylab harakatlanayotgan oqim har bir seksiyaning dx elementi uchun parrakning nuqtaviy zarbasini e'tiborga olgan holda quyidagi Eyler tenglamalarini yozish mumkin

$$v = v_0 = Q_0 / \rho_0 S_0 \quad 0 < x < x_0 \quad (1)$$

$$v_1 \rho_1 \frac{dv_1}{dx} = -\frac{dp_1}{dx} + \rho_1 g (\sin \alpha - f n \cos \alpha) + \lambda_0 (v_s - v_1) \quad x_0 < x < x_1 \quad (2)$$

$$v_2 \rho_2 \frac{dv_2}{dx} = -\frac{dp_2}{dx} + \rho_2 g (\sin \alpha - f n \cos \alpha) + \lambda_0 (v_s - v_2) \quad x_1 < x < x_2 \quad (3)$$

$$v_3 \rho_3 \frac{dv_3}{dx} = -\frac{dp_3}{dx} + \rho_3 g (\sin \alpha - f n \cos \alpha) + \lambda_0 (v_s - v_3) \quad x_2 < x < x_3 \quad (4)$$

Bu yerda $v_i, \rho_i, p_i (i = 1, 2, 3)$ qanotli parraklar orasidagi seksiyalarda xomashyo oqimining zichligi, tezligi va bosimi, $\lambda_0 = c / S_0$, c - qarshilik kuchining koeffitsiyenti

(1) v (4) tenglamalarning har birida uchta v_i, ρ_i, p_i noma'lumlar qatnashadi. Tenglamani to'ldirish uchun quyidagi qo'shimcha shartlar qabul qilinadi.

1. Bosim bilan zichlik orasidagi bog'lanish, ya'ni holat tenglamasi mavjud bo'lishi lozim. Bu tenglamada tutash muhitda zichlik bilan bosim orasida chiziqli bog'lanish o'rinli bo'ladi [1].

$$\rho = \rho_0 [1 + A(p - p_0)] \quad (5)$$

Bu yerda ρ_0, p_0 - paxta xom ashyosining tozalash zonasiga kirishdan oldingi holatidagi zichligi va bosimi, A - tajriba asosida aniqlanadigan koeffitsiyent bo'lib bu koeffitsiyent xom ashyoni hajmiy siqilish moduli K ga nisbatan teskari kattalik hisoblanadi. (3) tenglik oqimning barcha zonalarida o'rinli deb qabul qilinadi.

2. Statsionar oqimda xom ashyo massasi vaqt birligida o'zgarmas bo'lib, bu shart massaning saqlanish qonunini ifodalaydi.

$$Q_0 = \rho_0 v_0 h_0 L = \rho v h L \quad (6)$$

Bu yerda , h_0 - xom ashyosining qalinligi, ρ , v , h - xom ashyoning tozalash zonasining ixtiyoriy yoyidagi zichligi, tezligi va qalinligi.

Hisoblash jarayonida xom ashyo qalinligi h o'zgarimas deb $h=h_0$ deb qabul qilamiz.

(5) va (6) formulalardan foydalanib, zichlik va bosimni tezlik v orqali ifodalaymiz.

$$\rho = \frac{v_0 \rho_0}{v}, \quad p = p_0 - \frac{1}{A} \left(\frac{v}{v_0} - 1 \right) \quad (7)$$

ρ va r ning ifodalarini (1) va (2.) tengliklarga qo'yib, tezlik uchun quyidagi tenglamani olamiz:

$$(1 - M^{-2}) \frac{dv_1}{dx} = \lambda(v_s - v_1) + \frac{g}{v_1} (\sin \alpha - f \cos \alpha) \quad x_0 < x < x_1 \quad (8)$$

$$(1 - M^{-2}) \frac{dv_2}{dx} = \lambda(v_c - v_2) + \frac{g}{v_2} (\sin \alpha - f \cos \alpha) \quad x_1 < x < x_2 \quad (9)$$

$$(1 - M^{-2}) \frac{dv_3}{dx} = \lambda(v_c - v_3) + \frac{g}{v_3} (\sin \alpha - f \cos \alpha) \quad x_2 < x < x_3 \quad (10)$$

Bu yerda $M = \frac{v_0}{c_0}$, $c_0 = \sqrt{\frac{1}{A\rho_0}}$ - xom ashyoda to'lqin tarqalish tezligi, $\lambda = \lambda_0 / \rho_0 v_0$

(8)-(10) tenglamalar ushbu shartlarda integrallanadi

$$v_1(x_0) = v_{zar}, v_2(x_1) = v_{zar}, v_3(x_2) = v_{zar} \quad (11)$$

Bu yerda v_{zar} qanotli parraklarning zarbasi ta'sirida seksiyalar boshlang'ich kesimlaridagi tezligi .

(8)-(10) tenglamalar umumiy holda chiziqsiz bo'lib ularing yechimini analitik ko'rinshda aniqlash mumkin. Bunday yechim $x_0 < x < x_1$ oraliqda quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$2\lambda(x - x_0)(1 - M^{-2}) = \ln \frac{\lambda v_{zar}(v_{zar} - v_c) - b}{\lambda v(v - v_c) - b} + \frac{v_c}{\sqrt{4b\lambda + \lambda^2 v_c^2}} \left[\arctan \frac{\lambda(v_c - 2v_{zar})}{\sqrt{4b\lambda + \lambda^2 v_c^2}} - \arctan \frac{\lambda(v_c - 2v)}{\sqrt{4b\lambda + \lambda^2 v_c^2}} \right] \quad (12)$$

Bu yerda $b = g(\sin \alpha - f_0 \cos \alpha)$

Qolgan oraliqlarda ham shunday ko'rinishdagi yechimlarni olish mumkin. (12) yechim murakkab ko'rinishda bo'lganligi sababli uni tahlil etish ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli formulani havo qarshilgi e'tiborga olinmagan ($\lambda = 0$) xususiy holini qaraymiz. U holda oqim tezligini har bir seksiyada quyidagi ifodalar yordamida aniqlaymiz:

$$v_1 = \sqrt{v_{zar}^2 + 2ga(x - x_0)} \quad \text{pri} \quad x_0 < x < x_1$$

$$v_2 = \sqrt{v_{zar}^2 + 2ga(x - x_1)} \quad \text{pri} \quad x_2 < x < x_1$$


$$v_3 = \sqrt{v_{zar}^2 + 2ga(x - x_2)} \quad \text{pri} \quad x_2 < x < x_3$$

Hisob natijalar quyidagi qiymatlarda keltirilgan


$$v_0 = 10 \text{ m/s}, v_{zar} = 12 \text{ m/s}, \rho_0 = \frac{50 \text{ kg}}{\text{m}^3},$$

2 va 3 rasmlarda qiya tekislik bo'ylab oqim tezligi $v(\text{m/s})$ va zichliklar $\rho(\text{kg/m}^3)$ ining paxta xomashyosi hajmiy moduli $K(\text{Pa})$ va qiyalik burchagi $\alpha(\text{grad})$ ining turli qiymalarida taqsimlanish grafiklari keltirilgan


$K=4.55 \cdot 10^3 Pa$




$K=4.95 \cdot 10^3 Pa$



$K=5.5 \cdot 10^3 Pa$




$K=6 \cdot 10^3 Pa$




2-rasm. Paxta oqmi tezligi $v(m/s)$ ning paxta hajmiy moduli $K(Pa)$ va qiyalik burchagi $\alpha(grad)$ larning turli qiymalarida qiya tekislik bo'ylab taqsimlanish grafiklari: 1- $\alpha = 20$,
2- $\alpha = 30$, 3- $\alpha = 40$, 4- $\alpha = 50$, 5- $\alpha = 60$

$K=4.55 \cdot 10^3 Pa$




$K=4.95 \cdot 10^3 Pa$



$K=5.5 \cdot 10^3 Pa$

$K=6 \cdot 10^3 Pa$



3-rasm. Paxta oqmi zichligi $\rho(kg/m^3)$ ning paxta hajmiy modul $K(Pa)$ va qiyalik burchagi $\alpha(grad)$ larning turli qiymalarida qiya tekislik bo'ylab taqsimlanish grafiklari: 1- $\alpha = 20$, 2- $\alpha = 30$, 3- $\alpha = 40$, 4- $\alpha = 50$, 5- $\alpha = 60$

Grafiklar tahlilidan paxta hajmiy siqilish moduli K ning oshishi bilan uning kritik qiymatida K_{kr} ($K_{kp} = 5 \cdot 10^3 Pa M = \frac{v_0}{c_0} \approx 1$ qiymatida) kichik bo'lsa uning tezligi kamayib, zichligining oshishini kuzatish mumkin. Agar bu fizik kattalik kritik qiymatdan yuqori bo'lsa, tezlik kamayib, zichlik oshishi mumkin. Bu holda oqim seksiyalarda qo'shimcha zichlikka ega bo'ladi.

Bu holda, yuzaning ochiq qismidan paxta oqimi harakatlanganda, to'rtli yuza va paxta orasida hosil bo'luvchi ishqalanish kuchi tasirida, xomashyo tarkibidagi iflosliklar ajralishi mumkin (3-rasm).

Iflosliklar ajralishi jaryonini kuchaytirish maqsadida yuzaga qo'shimcha so'ruvchi bosim $p_0 - p$ ta'sir etadi Bu bosim ta'sirida xomashyo bilan orasidagi kontakt kuchi oshib, tekislik sirtida qo'shimcha ishqalanish kuchini hosil qiladi, bu holat o'z navbatida xomashyo tezligini kamaytirishi mumkin. Buning natijasida iflosliklar miqdorining ajralishini oshirishi mumkin. To'rtli yuzaga ta'sir etayotgan bosimni $\Delta p = \frac{p_0 - p}{L}$, belgilab, yuqoridagi (1)-(4) tenglamalarni quyidagicha yozamiz:

$$v_1 \rho_1 \frac{dv_1}{dx} = -\frac{dp_1}{dx} + \rho_1 g (\sin \alpha - f n \cos \alpha) + \lambda_0 (v_s - v_1) - (1 - n) * f \Delta p \quad x_0 < x < x_1 \quad (13)$$

$$v_2 \rho_2 \frac{dv_2}{dx} = -\frac{dp_2}{dx} + \rho_2 g (\sin \alpha - f n \cos \alpha) + \lambda_0 (v_s - v_2) - (1 - n) * f \Delta p \quad x_1 < x < x_2 \quad (14)$$

$$v_3 \rho_3 \frac{dv_3}{dx} = -\frac{dp_3}{dx} + \rho_3 g (\sin \alpha - f n \cos \alpha) + \lambda_0 (v_s - v_3) - (1 - n) * f \Delta p \quad x_2 < x < x_3 \quad (15)$$

Bu yerda $n = S_k / S_0$ - yuza foydali koeffitsienti, S_0 paxta qatlami to'rtliq ko'ndalang yuzasi, S_k - qatlamning ochiq yuzi, L - val uzunligi

(5) formuladan foydalanib, bosim Δp ni tezlik orqali ifodalaymiz

$$\Delta p = \frac{1}{AL} \left(\frac{v}{v_0} - 1 \right) \quad (16)$$

(16) Formuladagi bosimni (13)-(15) tenglamaga qo'yib, quyidagi ko'rinishga keltiramiz


$$(1 - M^{-2}) \frac{dv_i}{dx} = \lambda (v_s - v_1) + \frac{g}{v_1} (\sin \alpha - n f \cos \alpha) - a v_1 + b \quad x_0 < x < x_1 \quad (17)$$

$$(1 - M^{-2}) \frac{dv_2}{dx} = \lambda (v_c - v_2) + \frac{g}{v_2} (\sin \alpha - f \cos \alpha) - a v_2 + b \quad x_1 < x < x_2 \quad (18)$$


$$(1 - M^{-2}) \frac{dv_3}{dx} = \lambda(v_c - v_3) + \frac{g}{v_3} (\sin \alpha - f \cos \alpha) - av_3 + b \quad x_2 < x < x_3 \quad (19)$$

Bu yerda $a = \frac{(1-n)f}{M^2 L}$, $b = av_0$

(17)-(19) tenglamalar chiziqsiz bo'lib ushbu boshlang'ich shartlarda $v_1(x_0) = v_{zar}$, $v_2(x_1) = v_{zar}$, $v_3(x_2) = v_{zar}$ sonli usulda MAPLE-17 dasturi asosida integrallanadi. Natijalar 5, 6, 7- rasmlardagi grafiklarda keltirilgan.





a)



b)


4-rasm. Paxta oqim tezligi v (m/s) ni paxta hajmiy moduli K (Pa) va qurilmani qiyalik burchagi α (grad) ni turli qiymatlaridagi, qiya tekislik bo'ylab(x), o'zgarish grafiklari keltirilgan.

1 - $\alpha = 20^\circ$, 2 - $\alpha = 30^\circ$, 3 - $\alpha = 40^\circ$; a) $K=4550$ Pa; b) $K=5000$ Pa;




5-rasm. Paxta oqim zichligi ρ ($\frac{kg}{m^3}$) ni paxta hajmiy moduli K (Pa) va qurilmani qiyalik burchagi α (grad) ni turli qiymatlaridagi, qiya tekislik bo'ylab(x), o'zgarish grafiklari keltirilgan.

1 - $\alpha = 20^\circ$, 2 - $\alpha = 30^\circ$, 3 - $\alpha = 40^\circ$; a) $K=4550$ Pa; b) $K=5000$ Pa;



a)



b)

6-rasm. Paxta oqim bosimi Δp (Pa)ni paxta xajmiy moduli K (Pa) va qurilmani qiyalik burchagi α (grad) ni turli qiymatlaridagi, qiya tekislik bo'ylab(x), o'zgarish grafiklari keltirilgan.

1 – $\alpha = 20^\circ$, 2 – $\alpha = 30^\circ$, 3 – $\alpha = 40^\circ$; a) $K=4550$ Pa; b) $K=5000$ Pa


Grafiklar tahlilidan, to'rtli yuzani qiyalik burchagini kamayishi paxta oqimini tezligini kamayishiga olib kelar ekan (4-rasm). Va natijada paxta zichligi to'rtli yuzani uchchala aktiv oraliq qismida o'zgarimas bo'lib (5-rasm), yod aralashmalarni paxta bo'lakchalaridan ajralish jarayoniga aktiv ta'sir ko'rsatmas ekan. Bu jarayonni bosim o'zgarishini (6-rasm) butun to'rtli yuz bo'ylab bir maromda saqlanib turishidan xam ko'rishimiz mumkin. Aksincha to'rtli yuzani qiyalik burchagini oshishi, paxta bo'lakchalarini tezligini oshishiga va mos ravishda, paxta xomashyo tarkibidagi iflosliklarni ajralish effektini oshishishini zichlikni to'rtli yuz bo'ylab kamayishishidan ko'rsak bo'ladi (5-rasm).

Dissertatsiyaning “**Yangi konstruksiyadagi paxta separatorining matematik model asosida nazariy tadqiq etish**” deb nomlangan uchinchi bobida paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonidan pnevmotransportda tashilayotgan paxtani havo oqimidan ajratib olishda ko'p hollarda “SS-15” markali separator urilmasidan foydalaniladi. Yangi separator vakuum-klapani konstruksiyasini takomillashtirish orqali texnologik jarayon samaradorligini, ish unumdorligi, paxta xomashyosining sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish va har xil yot aralashmalardan tozalash borasida qator nazariy va amaliy ishlar olib borildi.

Bunda mavjud nuqsonlar yo'qolishi bilan bir qatorda iflosliklardan ham tozalanadi. Taklif etilayotgan yangi separator quyidagicha ishlaydi: ventilyator ishlashi bilan havo quvuridagi havo so'rilishi natijasida, paxta xomashyosi havo oqimi bilan birga harakatlanib, separatorga kirish quvuri(1) orqali ishchi kamera(2) ga kirib, to'rtli sirt (3) ga yopishadi va sidirgich (4) orqali yopishgan paxta xomashyosi sidirib olinib, ishchi kameraning pastiga tashlanadi. Ishchi kameradan inersiya kuchi yordamida pastiga tushayotgan paxta xomashyosi vakuum-klapanga o'rnatilgan to'rtli yuz (8) ga tushadi va qanotli parraklar (10) yordamida soat strelkasiga qarama-qarshi harakatlanishi natijasida turli iflosliklardan tozalanib keyinga jarayonga o'tadi. Turli

iflosliklar yig'iluvchi bunker (11) parragi aylanishi natijasida yot jismlar tashqariga chiqarib yuboriladi.


Taklif qilinayotgan separatorning takomillashgan konstruksiyasida vakuum-klapanda qo'llanilgan rezina parraklar hisobiga germetikligi keskin oshishi tufayli vakuum-klapandan havo so'rilishi kamayadi va separatorni ish unumdorligini oshiradi. Yangi konstruksiyadagi rezina parraklarni rezina yuzaga o'rnatish jarayonida paxta bo'lakchalarini ushlab qoluvchi moslamalar yo'qligi natijasida paxta xomashyosi to'liq keyingi jarayonga o'tkazilishi xomashyoni parraklar orasida qolib ketishi amaliyotda kuzatilmadi.



7-rasm. Yangi separator qurilmasini umumiy texnologik sxemasi

1-kirish quvuri, 2-ishchi kamera, 3-to'rli sirt, 4-sidirgich, 5-sidirgich vali, 6-havo so'ruvchi qism, 7-vakuum-klapan, 8-to'rli sirt, 9-baraban, 10-parrak, 11-iflosliklar yig'iluvchi bunker vakuum-klapani

Yangi separator qurilmasining konstruksiyasini ishlab chiqish CAD-CAM hamda Solidworks kompyuter dasturi orqali amalga oshirildi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yangi yaratilgan konstruksiyaning ishlash ishonchligini tekshirish va asosiy ishchi organlar parametrlarini aniqlash maqsadida matematik modellashtirish usuli yordamida tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq deb topildi.



8-rasm. Vakuum-klapan qurilmasining 3D ko'rinishi

1-vakuum-klapan korpusi, 2-to'ri sirt, 3-baraban, 4-parrak, 5-iflosliklar yig'iluvchi bunker vakuum-klapani

Paxta tozalash korxonalarida foydalaniladigan paxta separatorlarning vazifasi, chigitli paxtani pnevmotransport moslamasi orqali kelayotgan havo oqimidan paxta xomashyosini ajratib olish, shuningdek paxtani chang va qisman mayda iflosliklardan tozalash, hamda kerakli nuqtaga yetkazib berish hisoblanadi. Paxta tozalash korxonalarida SS-15A rusumli separator keng qo'llaniladi.

Separatorida o'zgarishi mumkin bo'lgan parametrlarini tahlil qilib, eksperimental tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan undagi paxtani tozalash samaradorligini oshirish, pnevmotransportda havo sarfini kamaytirish kabi parametrlarini topish zarur.

Biz $N=2^3$ ko'rinishdagi to'liq faktorli eksperiment o'tkazish orqali bu parametrlarni aniqlashga harakat qilamiz.

Separator vakuum-klapani konveyer lentasining harakat tezligi, to'ri yuzaning qiyalik burchagi va qanotli parraklar orasidagi masofa bo'yicha ratsional qiymati tanlab olingan. Tanlangan parametrlar, vakuum-klapan konveyer lentasining harakat tezligi ayl/min (x_1) va to'ri yuzaning qiyalik burchagi, grad (x_2), qanotli parraklar orasidagi masofa, sm (x_3) bo'lib, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun, ushbu parametrlarning ratsional qiymatlarini aniqlash lozim bo'ladi. Kiruvchi parametrlar sifatida ularning quyi (-1) va yuqori (+1) qiymatlarini aniqlaymiz.

Vakuum-klapan konveyer lentasining harakat tezligi (x_1) ning (-1) kichik qiymati 50 ayl/min ga teng bo'lib, bundan kichik qiymatda tiqilish sodir bo'lishi va vakuum-klapan konveyer lentasining harakat tezligi (x_1) ning yuqori (+1) qiymati 100 ayl/min bo'lib, bu separatorning tozalash imkoniyatini kamaytiradi.[45]

To'ri yuzaning qiyalik burchagi (x_2), eng kichik gradusi (-1) 60° qabul qilindi, bu eng minimal qiyalik burchagi hisoblanadi. Agar to'ri yuzani qiyalik burchagi 70° ,

undan kamaysa sirpanish (paxtaniki) 0 ga teng bo'lishi mumkin. Agarda 90° bo'lsa, sirpanish tezlashib tozalash imkoniyati kamayadi.

Qanotli parraklar orasidagi masofa (x_3) eng kichik masofasi (-1) 20 sm ga teng bo'lib, bundan kichik qiymatda vakkum-klapanda paxtani tiqilishi sodir bo'ladi. Agar qanotli parraklar orasidagi masofa (x_1) ning yuqori (+1) qiymati 40 sm bo'lsa, bu tozalash imkoniyatini kamaytiradi.

Taklif etilayotgan qurilmaning samarali ishlashini ta'minlovchi optimal parametrlarini aniqlash

Chiquvchi parametrlar:

Y_1 - tozalash samaradorligi %

Y_2 – chigit shikastlanishi %

Kiruvchi parametrlar:

x_1 - Vakuum-klapan konveyer lentasining harakat tezligi (ayl/sek)

x_2 - To'rli yuzaning qiyalik burchagi (gradus)

x_3 - Qanotli parraklar orasidagi masofa (sm)

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarni tanlash

1-jadval



Omillar nomi va belgilanishi	O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i
	-1	0	+1	
x_1 -konveyer lentani harakat tezligi, aly/min	50	75	100	25
x_2 - To'rli yuzaning qiyalik burchagi, gradus	60	70	80	10
x_3 - qanotlar parraklar orasidagi masofa, (sm)	20	30	40	10

Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda Styudent, matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher mezonlaridan foydalanildi. Chiquvchi omillar sifatida Y_1 – tozalash samaradorligi bo'yicha tanlandi.



Paxta separatorining ishchi kamerasida havo oqimidan ajralayotgan paxta xomashyosini tashqi muhitga vakuum-klapani orqali mayda ifosliklardan tozalagan holda chiqarib yuborish va ishchi kameraga vakuum-klapani orqali havoni sizib kirishini bartaraf etish va bu xossani Y_1 – tozalash samaradorligi (%) bo'yicha baholandi. Shuning uchun ikkinchi darajali regression matematik modelni olish uchun, boshqa usullarga nisbatan birmuncha soddaroq va qulay, hamda paxta sanoati texnologik jarayonlari tadqiqotlarida keng qo'llanilayotgan markaziy nokompozitsion tajriba (MNKT) tanlandi va amalga oshirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'tkazilgan tajriba natijalarini statistik tahlilidan va optimallashtirish yechimlarini chizmalari natijasiga ko'ra paxta tozalash korxonalarida separator ishchi kamerasiga vakuum-klapani orqali havoni sizib kirishini bartaraf etish hamda paxtadagi passiv turdagi mayda iflosliklarni tozalashga erishiladi. Qurilmaning kiruvchi omillari sifatida qabul qingan konveyer lentaning harakatlanish tezligi $x_1=75$ ayl/min, to'rli yuzaning qiyalik burchagi esa $x_2=70^\circ C$ va qanotli parraklar orasidagi masofa $x_3=30$ sm da bo'lganda vakuum klapan orqali ishchi



kamera ga sizib kirayotgan havo bartaraf etiladi va tozalash samaradorligi bo'yicha eng eng yuqori natijaga erishiladi.



9-rasm. Vakuim-klapan konveyer lentasining harakat tezligi (ayl/min) va to'rl yuzaning qiyalik burchagi (gradus) ni tozalash samaradorligiga ta'siri



10-rasm. To'rl yuzaning qiyalik burchagi (gradus) va qanotli parraklar orasidagi masofa (sm) ni tozalash samaradorligiga ta'siri



11-rasm. Vakuim-klapan konveyer lentasining harakat tezligi (ayl/min) va qanotli parraklar orasidagi masofa (sm) ni tozalash samaradorligiga ta'siri

Dissertatsiyaning “**Yangi separator qurilmasining iqtisodiy samaradorligini hisoblash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida yangi separatorni ishlab chiqarish jarayoniga o‘rnatish va sinov ishlari natijalari keltirilgan.

Ishlab chiqarish sinovlari korxonaga paxta xomashyosiga dastlabki ishlash davridan, ya’ni 15.09.2024 y. dan 11.10.2024 y. gacha o‘tkazildi.

Qurilmani ishlab chiqarish sharoitida sinash ishlab chiqilgan metodika asosida amalga oshirildi. Tajribalar Andijon 34 seleksiya navida birinchi va ikkinchi sanoat nav paxta xomashyosida, 9-16 % namlikda olib borildi.

2-jadval

Ishlab chiqarish sharoitida o‘rnatilgan sinov natijalari

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	
			Mavjud holat	Yangi joriy qilingan qurilma ishlaganda
1	Qurilmalar soni	dona	1	1
2	Qurilmaning ish unumdorligi	kg/ soat	15000	15500
3	Separatorlarda tola yo‘qolishining miqdori 1-2 navlarda	kg/ soat	0,7	0,3
4	Separatorlarda tola yo‘qolishining miqdori 3-4-5 navlarda	kg/ soat	3.78	1,5
5	Separatsiya jarayonidan so‘ng paxtadagi nuqson aralashmalar miqdori	%	9	8
6	Chigit shikastlanishi, % (Paxtani sanoat navi 1 /1, 2/1, 5/2)	%	1.35	1.30
7	Qurilmaning energiya sarfi	kVt	7,5	7,5

Shuningdek, olib borilgan tajribalarimiz natijasida paxta xomashyosini ishlab chiqarish jarayoniga yetkazib berish jarayonida paxta xomashyosining tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash bilan birgalikda separator ishchi kamerasiga vakkumklapan orqali havo so‘rilishi, ishchi kamerada bosimning kamayishi natijasida paxtani tashuvchi pnevmotransport quvurining tashish masofasini kamayishini oldini olishga erishildi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida paxta xomashyosini yetkazib berishda pnevmotransport quvurining tashish masofasi 100-120 metrdan 150-metrgacha oshishiga erishildi. Paxtani ishlab chiqarish jarayoniga yetkazib berishda taklif qilingan separator ish samaradorligini yaxshilashga erishildi.

Izoh: I sanoat navi, 1-sinf uchun paxta namligi 9.6 %, iflosligi 2,8 %, seleksiya navi Andijon-34; V sanoat navi, 3-sinf uchun paxta namligi 22 %, iflosligi 22 %, seleksiya navi Andijon-34.

Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilishdan olingan iqtisodiy samaradorlikka hisoblash

Ishlab chiqarish sinovlari “Namangan paxta teks” MCHJ ga qarashli “Kosonsoy paxta tozalash” korxonasi 2023-2024 yil paxta mavsumida tayyorlangan paxta xomashyosi bilan o‘tkazildi.

3-jadval

Yangi taklif qilinayotgan pnevmoseparator qurilmasining texnologik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Miqdori
1	Vakuum klapan barabani diametri	mm	220
2	Qurilma massasi	kg	300
3	To‘rli yuzaning balandligi	mm	120
4	Havo oqimining tezligi	m/sek	15÷30
5	Vakuum-klapanini aylanishlar soni	ay/daq	75
6	O‘rnatilgan quvvati	kVt	7,5
7	Ish unumdorligi	kg/soat	15500
8	Qanotli parraklarning ish unumdorligi	tonna	80,000

Yillik iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun paxta separatori mashinasining bazaviy va yangi konstruksiyasi bo‘yicha harajatlarini taqqoslashga asoslanadi.

Ilmiy-texnikaviy va loyiha konstruktorlik ishlari natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmaning P.2.2. ga muvofiq, agarda yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalash qo‘llanilishi va avtomatlashtirishni qo‘llanishi mahsulot sifatini (sinfini) oshishiga olib kelsa, yillik iqtisodiy samaraning hisobi quyidagi formula bo‘yicha bajariladi:

$$E = [(S_1 + Y_n \cdot K_1) - (S_2 + E_n \cdot K_2)] \cdot A + (St_2 - St_1)$$

bu yerda: E – yillik iqtisodiy samara, ming so‘m;

S_1 va S_2 – mahsulotni bazaviy va yangi texnika yordamida ishlab chiqarilganda o‘zgaruvchan moddalar bo‘yicha joriy harajatlar, ming so‘m; Y_n – kapital qurilmalar samarasining normativ koeffitsienti, 0,15; K_1 va K_2 – bazaviy va taklif qilinayotgan variantlar bo‘yicha solishtirma kapital qurilmalar, ming so‘m; A – mahsulotni natural birlikda yillik ishlab chiqarish hajmi; St_1 va St_2 – bazaviy va joriy qilinayotgan texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot narxi, ming so‘m.

Hisobni faqatgina harajatlarning o‘zgaruvchi moddalari bo‘yicha olib boramiz. Taklif qilinayotgan variantda separator qurimasini tayyorlashga xarajatlar 14,550 mln so‘mni tashkil qiladi.

Bazaviy va joriy qilinayotgan variantlarda tolaning sotiladigan narxi undagi nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdoriga bog'liq. O'zDSt 604:2001 ga muvofiq tola undagi nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdoriga bog'liq xolda beshta sinfga bo'linadi. Sinflar orasidagi farq 0,5% dan 3,5% gacha tashkil qiladi.

$$E_2=(E_v*W_k*C_9)=(2208*1,83*900)=3636,5 \text{ ming so'm}$$

Ilmiy-tadqiqot ishini ishlab chiqarishga joriy qilishdan iqtisodiy samaradorlik paxtaning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashdan olingan samara (E_1), tolaning yo'qolishini kamaytirishdan olingan samaradorlik (E_2) yig'indilardan iborat.

$$E=E_1+E_2=156827150+3636500 = 160463650 \text{ so'm}$$

Ya'ni, separator konstruksiyasini takomillashtirishdan yillik iqtisodiy samara 160463,6 ming so'mni, yoki chiqarilayotgan 1 tonna tolaga 52784 so'mni tashkil qiladi (2023 yil uchun hisoblangan).

XULOSALAR

Respublika va xorijiy mamlakatlarda pnevmotransport tizimi va uning asosiy elementi bo'lgan separator qurilmasi vakuum klapanini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilindi va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Respublika va xorijiy mamlakatlar ilmiy tadqiqotchilari tomonidan paxtani havo oqimidan ajratish jarayonini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ko'plab izlanishlarga qaramay, paxta separatorida paxtani vakuum-klapanga yo'nalishi, separatorlarda havo bosimining yo'qolishiga sabab bo'ladigan yuqori aerodinamik qarshilik va energiya sarfi sabablari to'liq ochib berilmagani va uni bartaraf etish masalasi o'z yechimini topmagani, tadqiqot olib borish zarurligini ko'rsatdi.

2. Nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida vakuum klapani bo'sh uyachalari orqali ishchi kameraga havoni sizib kirishi va mayda iflosliklardan qo'shimcha tozalash imkoniyati asoslab berildi.

3. Vakuum klapan qurilmasida Paxta oqimining qiya tekislikda qanotli parraklar yordamida ajratib olishni nazariy yo'l bilan o'rganildi hamda eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi va natijalar olinib tahlil qilindi.

4. Separator vakuum klapanida paxta xom ashyosini vintsimon harakatini nazariy yo'l bilan o'rganish natijasida olingan differensial tenglamalar tahlili qilindi.

5. Separator uskunasi ishlab chiqarish na'munasi "Namangan paxta teks" MCHJ ga qarashli "Kosonsoy paxta tozalash" korxonasi tayyorlandi va ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazilganda, olingan natijalar paxtadagi mayda iflosliklarni tozalash samaradorligi 7% dan 16% ga oshirildi va tolaning sifati yaxshilangani aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.09.2023.Т.66.01 ПРИ НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КАМБАРОВ ЭЛМУРОД АХМАДАЛИ УГЛИ

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ И ОБОСНОВАНИЕ
ПАРАМЕТРОВ ХЛОПКОВОГО СЕПАРАТОРА**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника
и робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2025.1.PhD/T5347.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Наманганского государственного технического университета (www.nammti.uz) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Обидов Авазбек Азаматович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Юлдашев Козим Комилжонович
доктор технических наук, доцент

Алиев Ботир Тохиржонович
доктор философии по техническим наукам,
доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2023.T.66.01 при Наманганском государственном техническом университете "27" сентября 2025 г. в 10:00 часов. (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансай, 7. Тел.: (69) 228-76-68, факс: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Наманганский государственный технический университет, 6-й корпус, 1-й этаж, комната 303).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирована под No 60). (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансай, 7.)

Автореферат диссертации разослан 10 сентября 2025 года.
(реестр протокола рассылки №38/3 от 5 июля 2025 года).

А.М.Махкамов

Председатель Ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Ш.А.Махсудов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии технических наук, доцент

У.Ж.Ешбаева

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В связи с высоким спросом на хлопковое волокно на мировом рынке особое значение придается вопросам совершенствования техники и технологии его производства, получения качественного хлопкового волокна. В настоящее время "по всему миру производится около ...23-24 млн тонны хлопкового волокна, но его годовой спрос на потребление составляет 23,5-25,0 млн тонн". Интенсивно растущее население мира также приводит к увеличению потребности в хлопковом сырье. В связи с этим в мировом масштабе хлопок признан мировым товаром и особое внимание уделяется повышению эффективности производства продукции путем выявления фактора, отрицательно влияющего на количество и качество продукции в ее выращивании, технологических процессах: сбора, транспортировки, хранения и очистки, обработки, снижения себестоимости за счет снижения издержек производства.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений ресурсосберегающих технологий и технических средств для извлечения из пневмотранспортёра воздуха без повреждений волокон и семян. Приоритетными в этом направлении являются исследования, в том числе в технологии транспортировки хлопка по пневмопроводам – предотвращение утечки свободных волокон по трубам и уменьшение повреждения семян, а также разработка энергоресурсосберегающих машин. В то же время разработка технических решений для устранения неполадок, всех технологических процессов, разделения хлопка является одной из актуальных задач в области повышения эффективности и долговечности работы вакуумно-клапанного вала.

В республике осуществляются широкомасштабные мероприятия по снижению трудозатрат и энергозатрат на извлечение хлопкового сырья, повышению эффективности производства, созданию и внедрению новых ресурсосберегающих технологий.» О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы “обозначены такие задачи, как” увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза путем продолжения промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте". Осуществлению задач, определенных иными нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности, в определенной степени служит данное диссертационное исследование.

